

Prezident Vashingtondan Toshkentga keldi



**0'z
bekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning
Amerika Qo'shma Shtatlariga rasmiy tashrifi yakunlandi.**

Davlatimiz rahbari 18-may kuni Toshkentga yetib keldi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati xabar qiladi.

Avvaldanoq tarixiy deb baholangan ushbu tashrif haqiqatan ham g'oyat samarali bo'ldi. Uning natijalari uzoq yillar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi

0'zA

0‘zbekiston – AQSH: strategik sheriklikning yangi davri



Avv

al xabar qilinganidek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan 2018-yil 15-17 may kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.

16 may kuni Oq uy qarorgohida davlat rahbarlarining uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Muzokaralarda O‘zbekiston – AQSH hamkorligining bugungi holati va uni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi. Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Muzokaralar yakunida davlat rahbarlarining “O‘zbekiston va Amerika Qo‘shma Shtatlari: strategik sheriklik yangi davrining boshlanishi” deb nomlangan Qo‘shma bayonoti qabul qilindi. Turli sohalardagi o‘zaro munosabatlarni yanada mustahkamlashga qaratilgan hujjatlar to‘plami imzolandi.

Jumladan, energetika, ikki tomonlama savdo munosabatlarini kengaytirish, oliy ta'lim va akademik tadqiqotlar, qishloq xo'jaligi sohasida hamkorlik bo'yicha ahdlashuv protokollari qabul qilindi. O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi hamda 2018 yilda Toshkentda Markaziy Osiyo savdo forumini o'tkazishda hamkorlik to'g'risidagi anglashuv memorandumlari imzolandi. Shuningdek, O'zbekiston Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki bilan AQSH Eksport-import banki o'rtasida qo'shma loyihalarni moliyalashtirish to'g'risida memorandum qabul qilindi.

Bu kelishuvlar ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarning tarixiy ahamiyatga molik yangi davrini boshlab berishi shubhasiz.

O'zbekiston delegatsiyasining AQSHga tashrifi munosabati bilan "Villard interkontinental" mehmonxonasida tashkil etilgan qabul marosimida Shavkat Mirziyoyev Donald Tramp bilan muloqot o'zaro ishonch va hurmat, bir-birining manfaatlarini hisobga olish tamoyillari asosida o'tganini alohida ta'kidladi. "Biz bu tarixiy tashrifni keyingi ikki yilda misli ko'rilmagan sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan O'zbekiston – AQSH hamkorligining mantiqiy davomi, deb bilamiz. Garchi mamlakatlarimiz geografik nuqtai nazardan bir-biridan olis bo'lsa-da, mehnatsevarlik, bag'rikenglik va vatanparvarlik kabi qadriyatlar xalqlarimizni birlashtirib turadi", dedi davlatimiz rahbari.

Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston tarixi va madaniyatini chuqur o'rganib, butun dunyoda keng targ'ib etayotgan Frederik Starr va boshqa amerikalik olimlarga tashakkur izhor etdi.

Tadbirda o'zbek maqom san'atini rivojlantirish, xalqimizning boy madaniy merosini dunyoda targ'ib etishga qo'shgan hissasi uchun maqom ansamblining sobiq xonandasi Izro Malakovga O'zbekiston Respublikasi xalq artisti unvoni berilgani e'lon qilindi. Izro Malakov bunday yuksak e'tibor uchun Prezidentimizga minnatdorlik bildirdi.

Tashrifning uchinchi kuni ham uchrashuv, muzokara va tadbirlarga boy bo'ldi.

Davlatimiz rahbari AQSH Davlat kotibi Maykl Pompeo bilan uchrashdi.

Uchrashuvda O'zbekiston Prezidentining rasmiy tashrifi ikki mamlakat manfaatlariga xizmat qilishi qayd etildi. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlash, tashqi siyosat mahkamalari aloqalarini faollashtirish masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Pentagonda AQSH mudofaa vaziri Jeyms Mettis bilan muzokara olib bordi.

Prezidentimiz tashqi siyosatimizdagi ochiqlik va yaxshi qo'shnichilik prinsiplariga asoslanib, Vatanimiz suvereniteti va mustaqilligini mustahkamlash maqsadida mamlakatimizning yangi Mudofaa doktrinasi qabul qilingani, harbiy okruglarning tarkibiy tuzilishi va vazifalari tubdan qayta ko'rib chiqilib, harbiy bilim yurtlari isloh qilinganini ta'kidladi.

O'zbekiston bu sohada Amerika Qo'shma Shtatlari bilan tajriba almashish, harbiy, harbiy-texnikaviy, mudofaa va xavfsizlik yo'nalishlarida hamkorlik qilishdan manfaatdor, dedi Shavkat Mirziyoyev.

AQSH mudofaa vaziri O'zbekiston mintaqada muhim geostrategik ahamiyatga ega davlat ekanini ta'kidladi.

O'zbekistonning ochiq va konstruktiv tashqi siyosati natijasida Markaziy Osiyoda yaxshi qo'shnichilik muhiti yaratildi. Afg'oniston Prezidenti Ashraf G'ani bilan muloqotlaringiz, Afg'oniston ishlari bo'yicha maxsus vakil tayinlaganingiz muhim ahamiyatga ega. Rasmiy tashrifingiz doirasida qabul qilingan besh yilga mo'ljallangan harbiy hamkorlik rejasi mintaqada tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi, dedi Jeyms Mettis.

Uchrashuvda mudofaa va xavfsizlik, harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlik sohalaridagi munosabatlarni rivojlantirish yuzasidan fikr almashildi.

Davlatimiz rahbari Kapitoliyda AQSH Kongressi Vakillar palatasi a'zosi Trent Kelli boshchiligidagi kongressmenlar bilan uchrashdi. Muloqotda ikki mamlakat o'rtasida o'zaro ishonch va manfaatdorlikka asoslangan munosabatlar qaror topgani qayd etildi. Parlamentlararo aloqalarni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Prezidentimiz parlament va hukumat darajasidagi ikki tomonlama tashriflar faollashgani siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilayotganini ta'kidladi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSH Senati Raisi o'rinbosari, moliya bo'yicha qo'mitasi raisi Orrin Xetch boshchiligidagi senatorlar bilan muloqot qildi. Suhbatda parlamentlararo aloqalar, shuningdek, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikning bugungi holati va istiqbollari yuzasidan fikr almashildi.

Mamlakatimiz rahbarining AQSHga rasmiy tashrifi dasturidan o'rin olgan mazkur uchrashuv strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish, ikki mamlakat parlamentlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilishi qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shu kuni Jahon banki prezidenti Jim Yong Kim bilan uchrashdi.

Davlatimiz rahbari uzoq yillardan buyon Jahon bankida ishlayotgan yurtdoshlarimiz bilan ko'rishdi.

Bugungi kunda O'zbekiston bilan mazkur bank o'rtasidagi hamkorlik energetika, irrigatsiya va kommunal tarmoqlarni modernizatsiya qilish, transport va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash

sohalarini qamrab olgan. 2020 yilgacha hamkorlik bo'yicha qo'shma dasturga 27 ta muhim loyiha kiritilgan. Ularning umumiy qiymati 4 milliard dollardan iborat bo'lib, uning 3 milliard dollari Jahon banki kreditlaridir.

Davlatimiz rahbari O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yirik iqtisodiy loyihalarda Jahon banki bilan hamkorlik yuksak samara berayotganini qayd etdi. O'zbekiston Jahon banki bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish tarafdori ekanini ta'kidladi.

Uchrashuvda istiqbolli loyihalar ko'rib chiqilib, amaliy aloqalarni yanada kengaytirish bo'yicha aniq takliflar bildirildi. Bog'dorchilikni rivojlantirish, shoshilinch tibbiy yordam tizimini takomillashtirish, sanoat korxonalarining energiya tejamkorligini oshirish, isitish tarmoqlarini modernizatsiya qilish, moliyaviy konsultativ xizmat ko'rsatish kabi sohalarga oid bitimlar imzolandi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning AQSHga rasmiy tashrifi yakuniga yetdi. O'zaro munosabatlardagi tarixiy voqea bo'lgan ushbu tashrif hamkorlikni yangi pog'onaga ko'tarishi shubhasiz.

O'zA

O'zbekiston va AQSH o'rtasida erishilgan kelishuvlar yuksak baholandi



O'z

bekiston delegatsiyasining Amerika Qo'shma Shtatlariga rasmiy tashrifi munosabati bilan "Villard interkontinental" mehmonxonasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati xabar qildi.

Unda ikki mamlakat rasmiy delegatsiyasi a'zolari, vazirlik va kompaniyalar rahbarlari, biznes va ilmiy doiralar vakillari ishtirok etdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Prezident Donald Tramp bilan muloqoti o'zaro ishonch va hurmat, bir-birining manfaatlarini hisobga olish ruhida o'tganini alohida ta'kidladi. "Biz bu tarixiy tashrifni keyingi ikki yil mobaynida misli ko'rilmagan sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan O'zbekiston – AQSH hamkorligining mantiqiy davomi, deb bilamiz. Garchi mamlakatlarimiz geografik nuqtai nazardan bir-biridan olisda joylashgan bo'lsa-da, mehnatsevarlik, bag'rikenglik va vatanparvarlik kabi qadriyatlar xalqlarimizni birlashtirib turadi", dedi davlatimiz rahbari.

O'zbekiston va AQSH o'rtasida iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik kengayotgani ta'kidlandi. Kuni kecha ikki mamlakat kompaniyalari o'rtasida qariyb 4,8 milliard dollarlik yangi shartnomalar imzolangani yuqori baholandi.

Uchrashuvda davlatimiz rahbari O'zbekiston tarixini chuqur o'rganib, butun dunyoda keng targ'ib etayotgan Frederik Starr va barcha amerikalik olimlarga tashakkur izhor etdi.

Tadbirda yana bir e'tiborli voqea bo'ldi: ko'p yillik samarali ijodi, o'zbek maqom san'atini rivojlantirish, xalqimizning boy madaniy merosini dunyoda targ'ib etishga qo'shgan hissasi uchun maqom ansamblining sobiq xonandasi Izro Asherovich Malakovga "O'zbekiston Respublikasi xalq artisti" faxriy unvoni berilgani e'lon qilindi. Izro Malakov yuksak e'tibori va qadrdon o'zbek xalqining unvoni uchun Prezidentimizga minnatdorlik bildirdi.

O'zA

**Oq uyda o'zbekcha kaʼlom
yangradi**



Hozirgina O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSH Prezidentining qarorgohi bo'lmish Oq uyga kirib keldi. Oq uyda Shavkat Mirziyoyevni Prezident Donald Tramp kutib oldi. Protokol bo'yicha suhbatlashuv bo'lib o'tganidan so'ng jurnalistlar zalni tark etdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev jurnalistlarga Oq uyda turib o'zbek tilida murojaat qilar ekan, dunyoda istiqomat qiluvchi barcha o'zbeklarga o'zining ezgu tilaklarini bildirdi.

Ayni damda Prezidentlarning yakkama yakkam suhbat bo'lib o'tmoqda. Shundan so'ng delegatsiyalarning kengaytirilgan tarkibdagi muzokoralari bo'lib o'tadi.

Tashrif tafsilotlari saytimizda kuzatib boring.

Oq uyda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tantanali kutib olindi



Avv

al xabar qilinganidek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan rafiqasi bilan 2018-yil 15-may kuni ilk rasmiy tashrif bilan Vashingtonga keldi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 16-may kuni Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidentining rasmiy qarorgohida bo'lib o'tdi.

Oq uyda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp kutib oldi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganiga 25 yil bo'ldi. O'tgan davrda O'zbekiston va AQSH o'rtasida aloqalar turli sohalarda jadal rivojlanib, so'ng yillarda Prezidentlar ikki marta – 2017-yil may oyida Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahrida o'tgan arab-musulmon mamlakatlari va AQSH sammiti va 2017-yilning sentyabr oyida BMT Bosh assambleiyasining 72-sessiyasi doirasida uchrashib, mamlakatlarimiz o'rtasidagi mavjud aloqalar va istiqboldagi rejalar xususida suhbatlashgan edi. Shuningdek, 2017-yilda O'zbekiston va AQSH rahbarlarining telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Muloqotlarda davlat rahbarlari dolzarb xalqaro va mintaqaviy muammolar yuzasidan fikr almashdilar. Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish, xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

AQSH Prezidenti O'zbekistonning mintqa mamlakatlari bilan yaxshi qo'shnilik munosabatlarini rivojlantirish va kooperatsiyani faollashtirishga qaratilgan, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan ochiq va konstruktiv tashqi siyosati va faol sa'y-harakatlarini har doim qo'llab-quvvatlab kelgan.

O'zbekiston bilan Amerikaning strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish, ayniqsa, mintaqaviy va xalqaro tinchlik va barqarorlikni ta'minlash borasidagi dolzarb masalalar bo'yicha ikki davlat rahbarlarining yondashuvlari mushtarakligi mamlakatlarimiz o'rtasidagi keng qamrovli munosabatlarni izchil rivojlantirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'tgan vaqt davomida O'zbekiston va AQSH davlatlari o'zaro anglashuv, hurmat va ikki tomonlama manfaatdorlik tamoyillariga asoslangan strategik sheriklik ruhidagi munosabatlarni rivojlantirish yo'lida muhim qadamlarni qo'ydi.

Ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirishning istiqbolli rejalarini birgalikda ko'rib chiqish maqsadida Prezident Donald Tramp O'zbekiston rahbariga AQSHga rasmiy tashrif bilan kelishni taklif qildi.

O'zbekiston Prezidenti tomonidan qabul qilingan bu taklif oliy darajadagi muloqotlarning yangi davrini boshlab berdi.

Tashrifning birinchi kuni ikki davlat rahbarlarining tor doiradagi uchrashuvlari bilan boshlandi.

Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga AQSHga kelish taklifini qabul qilgani uchun minnatdorlik bildirib, ikki mamlakat o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy gumanitar sohalarda aloqalarni yanada rivojlantirish, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik sohasidagi umumiy maqsadlarni amalga oshirishda birgalikda ishlashdan mamnun ekanligini qayd etdi.

Amerika Qo'shma Shtatlari O'zbekiston Respublikasi va uning qo'shni davlatlari suvereniteti, mustaqilligi va hududiy yaxlitligini, shuningdek, Sizning Markaziy Osiyoni yanada taraqqiy ettirish va o'zaro hamjihatligini mustahkamlashga yo'naltirilgan sa'y-harakatlaringizni qo'llab-quvvatlaydi, - dedi Donald Tramp.

Donald Tramp O'zbekiston Prezidentining mintaqaviy yondashuvga doir tashabbusini qo'llab-quvvatlashi, iqtisodiyot, jumladan, Afg'oniston bilan savdo aloqalarini rivojlantirishini qayd etdi.

O'z navbatida Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston delegatsiyasiga ko'rsatilgan yuksak ehtirom uchun minnatdorlik bildirdi.



– O'tgan davrda o'zaro do'stlik va sheriklik munosabatlarida mustahkam poydevor yaratildi. 2017-yilda bo'lgan uchrashuv va telefon muloqotida muhokama etilgan masalalarni bugun maromiga yetkazishva yangi, ko'p qirrali hamkorligimizni jadal rivojlantirishda yangi qadam bo'ladideb o'ylayman, – dedi Shavkat Mirziyoyev. – O'zbekiston va AQSHdagi Prezident saylovlaridan keyin mamlakatlarimiz munosabatlari yangi bosqichga ko'tarildi. Bugun qabul qilinadigan "O'zbekiston va Amerika Qo'shma Shtatlari: strategik sheriklik yangi davrining boshlanishi" nomli Qo'shma bayonot o'z nomi va mohiyati bilan ko'p narsani anglatadi. Tomonlarning uzoq kelajakka mo'ljallangan intilishlaridan dalolat beradi.

Davlatimiz rahbari mamlakatimiz tashqi siyosatining fundamental prinsip va konseptual asoslari o'zgarmasdan qolishini alohida ta'kidladi. O'zbekiston Respublikasi Amerika Qo'shma Shtatlari bilan an'anaviy munosabatlarni saqlash, har tomonlama hamkorlikni izchil mustahkamlash va rivojlantirishning qat'iy tarafdoridir.

Prezidentimizning AQSHga rasmiy tashrifi tafsilotlari jahonning eng nufuzli ommaviy axborot vositalarida keng yoritilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo'shma Shtatlariga rasmiy tashrifi davom etmoqda.

O'zA

Oq uyda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tantanali kutib olindi

Avval xabar qilinganidek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan rafiqasi bilan 2018-yil 15-may kuni ilk rasmiy tashrif bilan Vashingtonga keldi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 16-may kuni Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidentining rasmiy qarorgohida bo'lib o'tdi.

Oq uyda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp kutib oldi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganiga 25 yil bo'ldi. O'tgan davrda O'zbekiston va AQSH o'rtasida aloqalar turli sohalarda jadal rivojlanib, so'ng yillarda Prezidentlar ikki marta – 2017-yil may oyida Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahrida o'tgan arab-musulmon mamlakatlari va AQSH sammiti va 2017-yilning sentyabr oyida BMT Bosh assambleiyasining 72-sessiyasi doirasida uchrashib,

mamlakatlarimiz o'rtasidagi mavjud aloqalar va istiqboldagi rejalar xususida suhbatlashgan edi. Shuningdek, 2017-yilda O'zbekiston va AQSH rahbarlarining telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Muloqotlarda davlat rahbarlari dolzarb xalqaro va mintaqaviy muammolar yuzasidan fikr almashdilar. Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish, xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

AQSH Prezidenti O'zbekistonning mintaqa mamlakatlari bilan yaxshi qo'shnilik munosabatlarini rivojlantirish va kooperatsiyani faollashtirishga qaratilgan, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan ochiq va konstruktiv tashqi siyosati va faol sa'y-harakatlarini har doim qo'llab-quvvatlab kelgan.

O'zbekiston bilan Amerikaning strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish, ayniqsa, mintaqaviy va xalqaro tinchlik va barqarorlikni ta'minlash borasidagi dolzarb masalalar bo'yicha ikki davlat rahbarlarining yondashuvlari mushtarakligi mamlakatlarimiz o'rtasidagi keng qamrovli munosabatlarni izchil rivojlantirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'tgan vaqt davomida O'zbekiston va AQSH davlatlari o'zaro anglashuv, hurmat va ikki tomonlama manfaatdorlik tamoyillariga asoslangan strategik sheriklik ruhidagi munosabatlarni rivojlantirish yo'lida muhim qadamlarni qo'ydi.

Ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirishning istiqbolli rejalarini birgalikda ko'rib chiqish maqsadida Prezident Donald Tramp O'zbekiston rahbariga AQSHga rasmiy tashrif bilan kelishni taklif qildi.

O'zbekiston Prezidenti tomonidan qabul qilingan bu taklif oliy darajadagi muloqotlarning yangi davrini boshlab berdi.

Tashrifning birinchi kuni ikki davlat rahbarlarining tor doiradagi uchrashuvlari bilan boshlandi.

Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga AQSHga kelish taklifini qabul qilgani uchun minnatdorlik bildirib, ikki mamlakat o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy gumanitar sohalarda aloqalarni yanada rivojlantirish, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik sohasidagi umumiy maqsadlarni amalga oshirishda birgalikda ishlashdan mamnun ekanligini qayd etdi.

Amerika Qo'shma Shtatlari O'zbekiston Respublikasi va uning qo'shni davlatlari suvereniteti, mustaqilligi va hududiy yaxlitligini, shuningdek, Sizning Markaziy Osiyoni yanada taraqqiy ettirish va o'zaro hamjihatligini mustahkamlashga yo'naltirilgan sa'y-harakatlaringizni qo'llab-quvvatlaydi, - dedi Donald Tramp.

Donald Tramp O'zbekiston Prezidentining mintaqaviy yondashuvga doir tashabbusini qo'llab-quvvatlashi, iqtisodiyot, jumladan, Afg'oniston bilan savdo aloqalarini rivojlantirishini qayd etdi.

O'z navbatida Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston delegatsiyasiga ko'rsatilgan yuksak ehtirom uchun minnatdorlik bildirdi.



– O'tgan davrda o'zaro do'stlik va sheriklik munosabatlarida mustahkam poydevor yaratildi. 2017-yilda bo'lgan uchrashuv va telefon muloqotida muhokama etilgan masalalarni bugun maromiga yetkazishva yangi, ko'p qirrali hamkorligimizni jadal rivojlantirishda yangi qadam bo'ladideb o'ylayman, – dedi Shavkat Mirziyoyev. – O'zbekiston va AQSHdagi Prezident saylovlaridan keyin mamlakatlarimiz munosabatlari yangi bosqichga ko'tarildi. Bugun qabul qilinadigan "O'zbekiston va Amerika Qo'shma Shtatlari: strategik sheriklik yangi davrining boshlanishi" nomli Qo'shma bayonot o'z nomi va mohiyati bilan ko'p narsani anglatadi. Tomonlarning uzoq kelajakka mo'ljallangan intilishlaridan dalolat beradi.

Davlatimiz rahbari mamlakatimiz tashqi siyosatining fundamental prinsip va konseptual asoslari o'zgarmasdan qolishini alohida ta'kidladi. O'zbekiston Respublikasi Amerika Qo'shma Shtatlari bilan an'anaviy munosabatlarni saqlash, har tomonlama hamkorlikni izchil mustahkamlash va rivojlantirishning qat'iy tarafdoridir.

Prezidentimizning AQSHga rasmiy tashrifi tafsilotlari jahonning eng nufuzli ommaviy axborot vositalarida keng yoritilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo'shma Shtatlariga rasmiy tashrifi davom etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti AQSHga keldi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan 2018 yil 15-may kuni ilk rasmiy tashrif bilan Vashingtonga keldi.

AQSH poytaxtidagi "Endryus" aeroportida O'zbekiston

Respublikasi Prezidentini AQSH rasmiy vakillari kutib oldi.

Bo'lajak oliy darajadagi muloqotga ikki tomon ham katta e'tibor bilan qaramoqda. AQSH ma'muriyati O'zbekiston Prezidenti tashrifini tarixiy voqea sifatida baholamoqda.

Tashrifning asosiy tadbirlari 16-17 may kunlariga belgilangan. 16-may kuni Shavkat Mirziyoyev Oq uyda Donald Tramp bilan uchrashadi. Muzokaralar avval tor doirada, so'ng kengaytirilgan tarkibda bo'lib o'tadi.

Avval xabar qilinganidek, oliy darajadagi muzokaralarda O'zbekiston – AQSH hamkorligining bugungi holati va rivojlantirish istiqbollari muhokama qilinadi. Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashish rejalashtirilgan. Vashingtonda davlatimiz rahbari, shuningdek, AQSH Kongressi, Mudofaa vazirligi va Davlat departamenti hamda Jahon bankida ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazadi.

Rasmiy tashrif yakunida ikki mamlakat Prezidentlari "O'zbekiston va Amerika Qo'shma Shtatlari: strategik sheriklik yangi davrining boshlanishi" deb nomlangan Qo'shma bayonotni imzolashi, shuningdek, turli sohalarda o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlashga qaratilgan 40 dan ortiq hujjatlar to'plami qabul qilinishi kutilmoqda.



0'zA